

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.R.To'xtasinov, M.P.Azimova

Kartoshka ildizi va uning atrofi tuproqlarida uchraydigan fitonematodalar sistematik tahlili va turlar xilma-xilligi 103

I.I.Zokirov, A.A.Yoqubov

Kuzgi tunlamning qishloq xo'jalik ekinlariga ta'siri va O'zbekistonda samarali kurash choralar 106

B.A.Abduvealiyev, I.I.Zokirov

Gelmintlarning uy parrandalari bilan biotsenotik aloqalari 109

T.K.Ortikov, U.B.Shodmonov

Janubiy Farg'ona tuproqlarining mikrobiologik faolligi va unga turli omillarning ta'siri 115

A.A.Ma'rupo

Farg'ona vodiysi Uzunmo'ylov qo'ng'izlarining taksonomik reviziysi va zamonaliviy tur tarkibi 118

S.Sh.Axmadjonova

Kolorado qo'ng'izi (Coleoptera, Chrysomelidae)ning ayrim biologik xususiyatlari 122

V.Y.Isaqov, X.V.Qoraboyev

Tuproq va Indigofera tinctoria L. organlarida og'ir metallarning tarqalish va to'planish xususiyatlari 125

GEOGRAFIYA**M.N.Dehqonboyeva, X.A.Abduvealiyev**

Yer sig'imi tushunchasidan aholi zichligida foydalanish 132

X.Sh.Djo'rabyeva

Farg'ona vodiysida an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishiga ekologo-gyeografik omillarni ta'siri 137

N.O'.Komilova

Xo'jalik yuritishdagi qadimgi tizimning etnoekologik mohiyati 141

A.A.Xamidov

Farg'ona vodiysining landshaftlarini shakllanishiga litogen tuzilish va rel'efning ta'siri 148

QISHHLOQ XO'JALIGI**Q.A.Davronov, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev, Sh.A.Kuramatova**

"Avangard start", "Gulliver" "Antikolorad maks" preparatlarini g'o'za parvarishida qo'llash usullari va muddatlari 153

Sh.A.Kuramatova, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev

Kungaboqar o'simligiga qo'llanilgan mineral va organik o'g'itlarni uning o'sishi, rivojlanishiga va hosildorligiga ta'siri (Farg'ona viloyati tuproq iqlim sharoitida) 158

Sh.I.Mamatojiyev, M.A.Gazihev

Sabzavot ekinlari nafaqat oziq – ovqat, balki manzara hamdir 164

M.I.Aktamov, M.T.Isag'aliyev, B.M.Qo'chqorov

Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarda suvdan oson eruvchi ionlar dinamikasi 168

R.Djurayev

Urushdan keyingi yillarda chorva ozuqasi muammosi 172

R.Djurayev

Chorvachilik va uning sovet davlati xalq xo'jaligida tutgan o'mni 177

ILMIY AXBOROT**D.O.Turdaliyev**

Maslenitsa bayrami Slavyan madaniyatida ma'jusiylik va xristian an'analarining aksi sifatida 181



УО'К: 595.76

**KOLORADO QO'NG'IZI (COLEOPTERA, CHRYSOMELIDAE)NING AYRIM BIOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

**НЕКОТОРЫЕ БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОЛОРАДСКОГО ЖУКА
(COLEOPTERA, CHRYSOMELIDAE)**

**SOME BIOLOGICAL FEATURES OF THE COLORADO POTATO BEETLE
(COLEOPTERA, CHRYSOMELIDAE)**

Axmadjonova Sadoqatxon Shokirovna 

Farg'ona davlat universiteti, zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi dotsenti (PhD)

Аннотация

*В течение 2020-2023 годов были изучены поведение и стадии развития вида *Leptinotarsa decemlineata* Say, колорадского жука, принадлежащего к семейству жуков-листоедов (Coleoptera, Chrysomelidae). В статье представлены изменения процессов развития колорадского жука в условиях внешней среды, разнообразие ответных реакций на неблагоприятные воздействия.*

Abstract

*During the years 2020-2023, the behavior and stages of development of the species *Leptinotarsa decemlineata* say, a Colorado beetle belonging to the family of leaf beetles (Coleoptera, chrysomelidae), were studied. The article presents changes in the processes of development of the Colorado potato beetle in environmental conditions, a variety of responses to adverse effects.*

Annotatsiya

2020-2023-yillarda davomida bargho'r qo'ng'izlar (Coleoptera, Chrysomelidae) oиласига kiruvchi, Kolorado qo'ng'izi-Leptinotarsa decemlineata Say turining xatti-harakatlari va rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Maqolada kolorado qo'ng'izining tashqi muhit sharoitida rivojlanish jarayonlarining o'zgarishi, noqulay ta'sirlarga javob reaksiyalarining hilma-qilligi keltirilgan.

Ключевые слова: Жук, личинка, червь, яйца, кокон, вредитель

Kalit so'zlar: qo'ng'iz, lichinka, qurt, tuxum, g'umbak, zararkunanda.

Key words: Beetle, larva, worm, egg, cocoon, pest.

KIRISH

Qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalarining juda tez rivojlanishi, ko'payishining oldini olishda, ularni yo'q qilishda bu zararkunandalarning o'ziga xos bioekologik hususiyatlarini bilish muhim omillardan biri hisoblanadi. Kuzatuv ishining asosiy maqsadi qo'ng'izlar hulq – atvori, lichinkalarning tashqi muhit omillari ta'sirida rivojlanish bosqichlarini o'zgarishini o'rganish orqali bu zararkunandalarga qarshi biologik kurash choralarini samaradorligini kuchaytirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tajribalar dala sharoitida (Uchko`prik tuman, Mullazoir qishlog'i va Quva tuman, Rohatoy f/x da) laboratoriya sharoitida umumiy biologiya va zoologiya kafedrasi laboratoriyasida olib borildi.

Nazorat uchun ekilgan egatlar uzunligi 10 metr bo'lib, bu yerda 22 tup kartoshka o'simligi ekilgan, huddi shunday egatlar soni 5tani tashkil etdi. Aynan shu joyga shu miqdordagi kartoshkalar erta (25-27.02), o'rta (15-17.05) va kechki (8-10.08) vaqtarda takror ekilib, bargxo'r qo'ng'izlar va lichinkalarning faoliyati kuzatildi.

Ishda umumiy qabul qilingan entomologik usullardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Leptinotarsa desemineata Say faqat qo'ng'iz holatida qishlaydi, qishlov uchun tuproq haroratiga qarab 20-50 sm² cha qatlamlarga tushishi mumkin, tuproq qatlamlaridagi harorat 6-7°C bo'lganda qo'ng'izlar tuproqning yuza qatlamlari tomon harakatlanishadi. Ertal bahorda (27.02-20.03) ular tuproq yuzasiga chiqib, kartoshka tugunagining unib chiqsa boshlagan ko'chatlari bilan

BIOLOGIYA

oziqlanib zarar keltira boshlaydi. Qishlovdan chiqqan yoshi kata urg'ochi qo'ng'izlar darhol tuxum qo'yishni boshlashadi. Bir dona urg'ochi forma 1 sotix joyni mavsum davomida bemalol zararlashi mumkin. Bu qo'ng'izlar tuxumlari boshqa tur qo'ng'iz tuxumlaridan cho'zinchoq yorqin to'q sariqrangi bilan ajralib turadi. Tuxumlarini barglarning pastki yuzasiga, barg tomirlari orasiga g'ujlab qo'yadilar. (Uchko'prik tuman 2020yil) Kolorado qo'ng'izining rivojlanishi kuzatilganda, 2 marta nasl to'liq voyaga yetganligi tahlil qilindi. Birinchi avlod mart-may oylarida kuzatildi, 2-avlod iyun-avgust oyining ohirlarigacha davom etdi. Nazorat maydonlaridan terib olingen qo'ng'izlar og'irligi tortilganda, urg'ochi formalar 20-23 mg erkak formalarga nisbatan og'irligi bilan ajraldi, yosh qo'ng'izlar esa 100-110mgga teng bo'ldi.

Haroratga qarab, lichinkalar (2020 yil 10.04 o'rtacha oylik harorat 18.5°C) 14 kundan keyin tuxumdan chiqdi. Kolorado qo'ng'izining lichinkasi etuk yoshida tana uzunligi 15-16 mm gacha tanasi yetuk qo'ng'izlar singari bo'rtgan bo'lib, qurtlar tanasining bosh va oyoqlari qora, tanasining yon tomonlarida ikki qator qora nuqtalar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Lichinkalar yiriklashib kartoshka barglarini ko'proq iste'mol qilishi bilan o'simlik tarkibidagi moddalar ta'sirida ular tana rangi o'zgara boshlaydi, 3-4 yoshdagagi lichinkalarda rangning yorqinlashishi sarg'ish-jigarranga o'zgarishi kuzatiladi.

Zararkunanda qurtlari yosh bo'yicha turlicha rangda bo'lishi, ularni yoshlarni aniqlash osonligini ko'rsatadi. 1-chi yoshdagagi qurtlar uzunligi 1,5—2,4 mm bo'lib, tanasi tuklar bilan qoplangan, tana rangi to'q kulrang bo'ladi. 2-chi yoshdagagi qurtlar uzunligi 2,5—4,5 mm bo'lib tana rangi qizil, tuklar soni kam bo'ladi. 3-chi yoshdagagi qurtlar uzunligi 4,6—9 mm bo'lib, tana rangi sabzirang bo'ladi. 4-chi yoshdagagi qurtlar uzunligi 9—16 mm bo'lib, tanadagi egrilik yanada kuchayadi. Tanasi tiniq sarg'ish rangga kiradi. Qurtlar 1-chi yoshda bargning etini kemiradi, 2-chi yoshdan boshlab ular butun barg etini kemirib, faqat barg tomirlarni qoldiradi. 1 va 2 yoshda lichinkalar poyalar va barglarning yuqori qismida to'p bo'lib oziqlanishadi, 3 va 4 yoshda ular tarqoqlashib, qo'shni o'simliklarga ham o'tadilar. Lichinkalar juda ochko'z bo'lishadi, ular kartoshka barglari bilan 18-20 kungacha oziqlanishadi va g'umbaklashish uchun tuproqning dag'al, yumshoqligiga qarab 5-10smgacha bo'lgan qatlamlariga yashirinishadi. Zararkunandalarning birinchi avlodni to'liq yer yuzasiga chiqadi, yosh qo'ng'izlar yana ko'payish va zararlashni boshlashadi. Yer ostidagi g'umbak tuproq haroratiga qarab 25-30°C da (Uchko'prik tuman, Mullazoir qishlog'i, tuproq qo'shimcha organik o'g'it bilan boyitilgan) 14 kun ichida qo'ng'izga aylanib yer yuzasiga chiqadi. Tuproq qatlamlaridan chiqqan yosh qo'ng'izlar yorqin to'q sariq rangi va qattiq qanotlari yumshoq qoplamga ega bo'ladi. Quyosh nuri tasirida ularda, bir necha soatdan keyin qora yo'llar ham tiniqlashadi. Voyaga yetgan qo'ng'iz 6-20 kun davomida ovqatlanib, yog' zaxiralarini hosil qiladi, keyin ko'payishga kirishadi. II-avlod qo'ng'izlari deyarli bir-birlari bilan qo'shilmaydi, tuproqning yuza qatlamiga chiqib oziqlanadi va bahorgacha diapauzaga kiradi.

Bu qo'ng'izlar yashovchanligi boshqa qo'ng'izlarga nisbatan ancha yuqori bo'lib, aynan ularni diapauza holatiga kirishi, xavf yaqinlashganda yerga tushib, harakatsiz (o'lik) holatga o'tib olishi, kemyoviy zaharlarga tez moslashuvchanligi, zaharlarga qarshi immunitetni tez rivojlanishi, ko'payish intensivligi, o'zidan zaharli suyuqlik ishlab chiqarishi kabi holatlarni keltirishimiz mumkin.

XULOSA

Kolorado qo'ng'izlari zaharli solanin alkaloidlarini tanalarida to'plaganligi sababli, ularni ko'pchilik qushlar va hayvonlar oziqa sifatida istemol qilishmaydi, shuning uchun ularning tabiiy dushmanlari juda kam.

Qo'ng'iz lichinkalari bilan oziqlanuvchi, keng tarqalgan hasharotlardan — jujalets qo'ng'izlar, tuxum va qurtlarni xon qizi qo'ng'izining lichinkasi va yetuk zotlarini, oltinko'z va yirtqich qandalalarni keltirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. S. Ahmadjanova, & H. Rayimberdiyeva. (2021). POTATOES OF THE CROP CONFOUNDED PESTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(12), 270–276.
2. Ахмаджонова С.Ш., Каюмова О.И. //К вопросу об экологии Туркестанского щелкуна (Coleoptera, Elateridae) Ферганской долины// Вестник Хорезмской академии Мавъума. 2021-10. 48-54 стр.
- 3.S.Sh.Akhmadjonova.(2023).REACTIONS THAT ENSURE THE PROTECTION OF THE COLORADO BEETLE (COLEOPTERA, CHRYSOMELIDAE).[20.11]. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10071047>

4. Павлюшин В.А., Вилкова Н.А., Сухорученко Г.И., Фасулати С.Р., Надыкта В.Д., Исмаилов В.Я., Яковлева И.Н., Скрябин К.Г., Дорохов Д.Б. Методические рекомендации по индикации и мониторингу процессов адаптации колорадского жука к генетически модифицированным сортам картофеля. СПб. РАСХН, ВИЗР, 2005. С.41.